

SIMOB KO‘ZACHALAR

BO‘YICHA

MANBALAR TAHLILI

Temirova M.,
tayanch doktorant

Kirish.

Sferokonik idishlar yoki simob ko‘zachalar-ga qiziqish va o‘rganish ishlari nafaqat XIX asrdan boshlangan, balki, o‘rta asrlarning o‘zida ham, mazkur buyumga nisbatan e‘tibor yuqori bo‘lganligini manbalar orqali ko‘rishimiz mumkin. Manbalar-ni o‘rganish, bizga simobko‘zachalar haqida yana-da chuqurroq ma‘lumot va tasavvurga ega bo‘lishga, shu bilan birga, ularning vazifaviy maqsadi haqida xulosaga kelishimizga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Simobko‘zachalar to‘g‘risida bir qator man-balar mavjud bo‘lib ularni 2 guruhga bo‘lishimiz mumkin.

1. Yozma manbalar,

2. Moddiy manbalar,

1. Yozma manbalar

1.1. Qo‘lyozma asarlar:

- **Nasriy asarlar:**
 - **Fors tilida:** Ali Husayn al-Ansoriyning “Ixtiyorat-i Badi‘y”¹, Abu-l-Fazl-Hubaysh Tiflisiyning “Bayonu-s Sinoot”, Abu Rayxon Beruniyning “Kitob al-Jamohir fi-Ma‘rifat al-Javohir” (Minerologiya) va boshqalar.
 - **Arab tilida:** Nosiriddin Muhammad ibn Ibrohim “Al-Haqqoyq va Munis al-Avorif”,
- **Sheriy asarlar:**
 - **Fors tilida:** Afzaliddin Ibragim ibn Ali Xa-gani Shirvani², Fariddin Attor, Nizomiy Ganjaviy³ va boshqalar,
- **Miniatyura asarlar:** Abu Muhammad Mu-hammad ibn al-Qosim al-Basriy al-Haririyning “Al-Maqamat”, Abu ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari”.

2. Moddiy manbalar

2.2. San‘at asarlari.

- **Haykaltaroshlik namunolari:** Bosh far-ishtalar Gabriel va Maykl haykallari.

Tadqiqot metodologiyasi.

Nasriy asarlar:

Arablar bosqinidan keyin ko‘plab hududlar qa-tori O‘rta Osiyoda ham arab tili keng yoyildi. Biroq, bizga ma‘lum bo‘lgan, simobko‘zachalar bo‘yicha

yaratilgan asarlarning katta qismi fors tiliga oid.

Simobko‘zachalar bo‘yicha eng mashhur man-balardan biri Ali Husayn al-Ansoriyning “Ixtiyorat-i Badi‘y” asaridir. Manbaning faqat bir dona nusx-asi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, bugungi kunda bu qo‘lyozma O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Shar-qshunoslik institutida (inv. №1598) sharq qo‘lyozma-lari fondida saqlanmoqda. Asar muallifi Ali Husayn al-Ansoriy (Hoja Zaynal-Attar nomi bilan tanilgan, 807-1404 yillarda vafot etgan) Sheroz hukmdorining shifokori bo‘lgan. Asarining nomi “Ixtiyorat-i Ba-di‘y” bo‘lib, hijriy 770 (mil-1369 y.) da malika Badi-al-Jamol (Go‘zallik mo‘jizasi) ga bag‘ishlab yozilgan, aynan shu nom bilan atalgan.⁴ “Ixtiyorat-i Badi‘y” arxeologik asar emas, XVI asrga oid dorishunoslikka bag‘ishlangan muhim qo‘lyozmalardan biridir. Asar 1541 yilda Muhammad ibn Husayn Mirakiy

Samarqandiy tomonidan nasta‘liq xatida ko‘chirilgan bo‘lib, unda dori sifatida ishlatiladigan 602 ta giyoh, daraxt va jonivorlarning tasviri, inson uchun foydali va zararli jihatlari yoritib berilgan.

Asar o‘z davrida tibbiyot va dorishunoslik so-hasida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Unda keltirilgan ma‘lumotlar o‘sha davr tabobati va far-makologiyasi haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Qo‘lyozmaning chiroyli bezaklari va tasvirlari uning san‘at asari sifatida ham ahamiyatini oshiradi.

“Ixtiyorat-i Badi‘y” ning 27-29 - sahifalari si-mob moddasiga bag‘ishlangan. Va mazkur ma‘lumot oldida 3 dona simobko‘zachaning tasviri tushirilgan. Bundan anglash mumkinki, muallif bu turdagi idish-larda **simob moddasi saqlangan**ligini bildirib o‘tadi. “Ixtiyorat-i Badi‘y” haqida bir qator zamonaviy tad-qiqotchilar o‘z asarlarida to‘xtalib o‘tadi: B.V.Lunin⁵, Sh. R. Xodjayev va boshq⁶, H. Arman, H. Kuhistani, A. Zariy⁷ va boshqalar.

Ahamiyatligi jihatidan, biz uchun keyingi o‘rinda turuvchi yana bir mashhur manba, Abu-l-Fazl-Hubaysh Tiflisiyga tegishli “Bayonu-s Sinoot” (forscha nomi “درة ابن سینا”) asaridir. Muallif va asar haqidagi ma‘lumotlar bilan O.L.Vilchevskiy⁸, A. Sharifzoda⁹, G.P. Mixaylevichlarning¹⁰ tadqiqot-lari orqali tanishishimiz mumkin.

1 Али ибн Хусайн ал-Ансори. “Ихтиёрат-и бадий”. 1541. – Б. 27-29. Лунин Б.В. К вопросу о функциональном назначении сфероконических сосудов в связи с одним рукописным источником XVI в. // История материальной культуры Узбекистана. - Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1961. - Вып. 2. - С. 255-267

2 Джидди Г.А. Средневековый город Шемаха (IX - XVII вв.): историко-археологическое исследование. - Баку: Элм, 1981. – С.175.

3 Ghouchani A and Adle.C Sphero-Conical Vessel as Fuqqa a, or a Gourd For “Beer”. Vol.9. 1992. - P. 72-92.

4 Али ибн Хусайн ал-Ансори. “Ихтиёрат-и бадий”. 1541. – Б. 281.

5 Лунин. Б.В. К вопросу о функциональном назначении сфероконических сосудов в связи с одним рукописным источником XVI века // ИМКУ. – Вып.2. Ташкент, 1961. – С. 256-266.

6 Ходжаев Ш.Р, Филимонова Т.Г., Ахметзянов М.Р., Ходжаев А.Р. Ремесленное производство средневекового Хутталя. Душанбе, 2020

7 Arman H, Kouhestani H, Zariy A. Sphero-Conical Vessels in Islamic Pottery Survey and Explaining of Function. // فرود، میسانشن انستتس اب تا عل اطم (Arxeologik tadqiqotlar, 12-jild, 2-son, 2020-y. - B. 41-59.

8 Вильчевский О.Л. Сфероконические сосуды в переднеазиатском трактате по прикладной технологии XII в // СА. 1961. № 2. – С. 210–212.

9 Шарифзода А. ИНЪИКОСИ ХИМИЯИ АМАЛӢ ВА ТЕХНОЛОГИЯИ ЁУНАРМАНДӢ ДАР “БАЁНУ-С-СИНООТ”-И ХУБАЙШИ ТИФЛИСИ // МУАРРИХ (малъаллаи илмӢ-назариявӢ) Аҳмади Дониши Академияи миллии илмҳои Тоҷикистон, № 2 (26). 2021. - Б.135-146.

10 Абу-л-Фазл Хубайш Тифлиси. Описание ремесел (Байан ас-сана ат). Пер. с перс. введ. и коммент. Г. П. Михалеви. Москва: Наука, 1976. – С 256.



Tojik ilmida nisbatan kam nom qozongan olimlardan biri XII asrda yashagan fors-tojik olimi Shayx Hakim Kamoliddin Abulfazl Hubaysh ibn Ibrohim ibn Muhammad Tiflislikdir. Ismi ba'zan Abulfayz Hubaysh Tafisi, Habash, Jubaysh, Hasan va Husayn deb noto'g'ri yozilgan Hubaysh taxminan 1121-yilda Gruzia poytaxti Tbilisida tug'ilgan¹¹. Ularning oilasi o'sha paytdagi siyosiy vaziyat tufayli O'rta Osiyoga ko'chib o'tgan. Ular Kuniya shahrining aholisiga aylandilar. Shuning uchun u ba'zi asarlarida o'zini al-Qunaviy, al-Qunu deb atagan. Buni al-G'aznaviy - al-G'aznaviy yozgan. Hubaysh hayoti va ilmiy faoliyatining asosiy davri Saljuqiylar saltanati markazida Sulton Qiljik Arslon II ibn Mas'ud (1155-1192) saroyida o'tgan. Hubayshning o'limi 1200 yoki 1204 yillarda sodir bo'lgan deb taxmin qilinadi¹².

Abu-l-Fazl-Hubaysh Tiflisiyning 29 ta asari mavjud bo'lib, hunarmandchilik va, aynan, simobko'zachalarga oid bo'lgani "Bayonu-s Sinoot"dir. Asar haqida Malikushshuaro Bahorning shunday fikri bor: "Bayonu-s Sinoot" san'at asari bo'lib, Somoniylar hukmronligida, davr uslubida yozilgan yagona qomusiy asardir". Asar turli tillarga tarjima qilingan bo'lib, mualliflar manbani bir-biridan farqli nomlashgan

Tehron universitetida birinchi bo'lib, E. Afshor tomonidan, 1957 yilda Ayasofya muzeyidagi - Turkiya (hijriy 884 yilda Konstantinopolda yozilgan) nusxasi asosida "Bayonu-s Sinoot" kitobini nashr etdi. Kirish va sharhlar to'liq e'lon qilingan.

Navbatdagi tadqiqotlar 1959 yilda, Sovet eronshunos olimi O.L. Vilchevskiyga tegishli, u asarga "Texnologiya tavsifi"deb nom berib, "Sovet etnografiyasi" nomli nufuzli jurnalda sharhini e'lon qildi O.L. Vilchevskiy keyinroq bu asarning sferokonussimon idishlarga bag'ishlangan matnini tarjima qilib, 1961 yilda u "Sovet arxeologiyasi" jurnalida alohida maqola e'lon qildi, uning fikricha, mazkur maqola, sferokonussimon idishlarning maqsadi haqidagi bahslarga chek qo'ydi¹³.

Yana bir sovet olimi G.P. Mixaylevich bu asarni rus tiliga tarjima qilib, 1976 yilda bir bobdan tashqari "Hunarmandlik tavsifi" nomi bilan rus tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan. (Biz mazkur tadqiqotda, ushbu tarjima variantidan foydalandik).

Bu ikki rus olimlari asar nomini turlicha tarjima qilganlar.

Tiflisiyning traktati shuni bilan qiziqarliki, unda keltirilgan texnologik ishlab chiqarish retseptlarining

ko'pchiligi Kavkazorti an'analarini saqlab qolgan.

Bizning mavzuyimiz uchun juda muhim jihatlardan biri shuki, u zamonaviy kimyo-texnologik ishlab chiqarishning ko'plab retseptlari bilan umumiylikka ega. "Texnologiyalar tavsifi" kitobi esa bu maqsadda qo'llanilgan idishlar va boshqa uskunalar haqida batafsil tavsif ham beradi. Masalan, kinovarni ishlab chiqarish haqida gapirar ekan, Tiflisiy quyidagilarni yozadi: "Kinobar tayyorlash" uchun massiv, sirlangan shisha idishni (**toranj**) olsin, ya'ni shunday idishki, uning tubi torayib, og'zi esa ingichka bo'lsin, xuddi fokus uchun ishlatiladigan ko'za kabi.

Shu idishga simob solib, unga to'rtidan bir qismi sariq oltingugurt aralashtirsin, agar oltidan bir qismi qo'shilsa, bundan ham yaxshi bo'ladi. Ustiga yassi shakldagi mis bo'lagi joylashtirsin. Keyin butun idishni mustahkam loy bilan yaxshilab qopplansin va quyosh ostiga qo'ysin, shunda u yaxshi quriydi. Agar loy yorilib ketsa, uni yana qoplab, yaxshilab mustahkamlash kerak. Shundan so'ng o'choqda yaxshi alanga yoqib, sham yog'i bilan qizdiring va idishni olovning o'rtasiga qo'ysin. O'choqdagi teshikni esa loy bilan yopib qo'ysin¹⁴. Oddiy texnologiyadan so'ng, qizil bo'yoq - kinobar olingan¹⁵. Biz uchun e'tiborli jihati, **dori saqlash uchun** tarifi keltirilgan idish "toranj¹⁶", "turundji shishasi" - (apelsin yoki limon shaklida) o'xshatishi orqali sferokonik idishlarga ishora qiladi. Demak, ishonchli manba bo'lgan Tiflisiyning guvohligiga ko'ra, sferokonussimon idishlar bir vaqtlar kimyoviy ishlab chiqarish uchun idish sifatida ishlatilgan. Ushbu mustahkam, olovbardosh idishlarga odatda turli hajmdagi shishirilgan shakldagi idishlar kirgan bo'lib, o'rta asr ishlab chiqarish texnologiyasida uzoq vaqt davomida qizdirish talab qilinadigan kimyoviy reaksiyalar shu idishlarda amalga oshirilgan¹⁷.

Forsiy tilidagi simobko'zachalar tarifi keltirilgan navbatdagi asar Abu Rayhon Beruniyning mineralogiya o'qituvchisi asari "Kitab al-Jamahir fi Ma'rifat al-Jawahir" (رہاوجل ڈفرع رمف رلامجل باتك) bo'lib, bu "Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi" yoki "Qimmatbaho toshlar haqida kitob" deb tarjima qilindi. Unda Beruniy turli minerallar, qimmatbaho toshlar, ularning xususiyatlari, og'irligi va kelib chiqishi haqida ilmiy ma'lumotlar bergan.¹⁸ Asarni metallar haqida yozilgan ikkinchi bo'limida, simob - zi'boqning tabiati va xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilib, muallif simobni olishni shunday ta'riflaydi: "toshlarni maydalab, maxsus sopoldan tayyorlangan idish **"simob huqqachalar"**

11 Шарифзода А. ИНЪИКОСИ ХИМИЯИ АМАЛӢ ВА ТЕХНОЛОГИЯИ ӢУНАРМАНДӢ ДАР "БАӢУ-С-СИНООТ"-И ӢУБАЙШИ ТИФЛИСӢ // МУАРРИӢ (маълаллаи илмӢ-назариявӢ) Аҳмади Дониши Академияи миллии илмгои Тоҷикистон, № 2 (26). 2021. . - Б.135

12 Шарифзода А. ИНЪИКОСИ ХИМИЯИ АМАЛӢ ВА ТЕХНОЛОГИЯИ ӢУНАРМАНДӢ ДАР "БАӢУ-С-СИНООТ"-И ӢУБАЙШИ ТИФЛИСӢ // МУАРРИӢ (маълаллаи илмӢ-назариявӢ) Аҳмади Дониши Академияи миллии илмгои Тоҷикистон, № 2 (26). 2021. . - Б.135

13 Вильчевский О.Л. Сфероконические сосуды в переднеазиатском трактате по прикладной технологии XII в // СА. 1961. № 2. - С. 211.

14 Абу-л-Фазл Хубайш Тифлиси. Описание ремесел (Байан ас-сана ат). Пер. с перс, введ. и коммент. Г. П. Михалевич. Москва: Наука, 1976. - С. 26. Вильчевский О.Л. Сфероконические сосуды в переднеазиатском трактате по прикладной технологии XII в // СА. 1961. № 2. - С. 211.

15 Джанполадян Р. М. Сфероконические сосуды из Двина и Ани. Ереван: Изд-во АН АрмССР. 1982. - С.9-10.

16 **Izoh** - Toranj - islom me'morchiligida muhim bezak elementi bo'lib, odatda gumbaz yoki minoralarning tepasiga o'rnatiladigan konussimon yoki sferik shakldagi dekorativ element hisoblanadi. Toranjlar, ayniqsa, masjid, maqbara va madrasalar me'morchiligida keng qo'llaniladi.

17 Вильчевский О.Л. Сфероконические сосуды в переднеазиатском трактате по прикладной технологии XII в // СА. 1961. № 2. - С. 212.

18 Абу Райхон Беруний. Китеб ал-Жамохир фи-Маърифат ал- Жавахир (Минерология). Тошкент: Узбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2017. - Б.3-488.

ga bug‘lantirish yo‘li bilan haydab yig‘adilar. Simob bug‘i huqqachada sovub, suyuq holga keladi”¹⁹. Simob huqqachalar bu - simob ko‘zachalarning bir nomlanishi, nazarimizda. XX asrda olib borilgan bir qator tadqiqotlarda, simobni aynan A. R. Beruniy ta’riflagandek, alambiklar yordamida simob ko‘zachalarga solinganligiga guvoh bo‘lamiz.

Arab tilidagi manbalar.

Simobko‘zachalar bo‘yicha nodir manbalardan biri Nosiriddin Muhammad ibn Ibrohimga tegishli “Al-Haqqoyq va Munis al-Avorif” asaridir. Ba’zi tadqiqotchilar sferik-konussimon kulolchilik uyumlari orasida hayvon shaklidagi namunalar uchrashini inobatga olgan holda, ularni bug‘ hosil qiluvchi suv ombori sifatida talqin qilish mumkinligini ilgari surishgan. Shunga qaramay, baliq yoki tovuq shaklidagi idishlar bilan bug‘ hosil qiluvchi qurilma o‘rtasidagi aniq bog‘liqlik hali ishonchli dalillar bilan tasdiqlanmagan. Bunday texnologik ishlanmalar mavjud bo‘lish ehtimoli rad etilmasa ham, uni to‘liq tasdiqlash uchun texnika va eksperimental tadqiqotlar zarur. Bundan tashqari, sferik-konussimon idishlarning asosiy vazifasidan tashqari ikkilamchi maqsadlarda qo‘llanilgan bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas²⁰.

Hozirgacha bu mavzuda turli farazlar ilgari surilgan bo‘lsa-da, mavjud dalillar asosida ularni yanada aniqroq baholash imkoni mavjud. Tadqiqotchilarning fikricha, bu boradagi eng e’tiborga molik gipotezalardan biri Abdulloh Quchoni tomonidan ilgari surilgan. Uning dalillaridan biri sifatida Nosiriddin Muhammad ibn Ibrohim tomonidan 1272–1273-yillarda yozilgan “Al-Haqqoyq va Munis al-Avorif” asari tilga olinadi. Ushbu qo‘lyozma Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan “Daqiqalar kitobi” bilan bog‘liq bo‘lib, unda “Feniks ko‘zasi” to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlangan. Mazkur qo‘lyozmaning 19-sahifasida chizilgan illyustratsiyada bir qo‘lida yelpig‘ich, ikkinchi qo‘lida suv to‘ldirilgan ko‘za tutgan inson tasvirlangan bo‘lib, u qushlar ustiga minib turgan holda namoyon etilgan (2-rasm).

Ushbu tasvirda sferik-konussimon idishlarning borligi aks ettirilgan. Garchi kitob illyustratsiyalarining badiiy ishlovi oddiy bo‘lsa ham, bu idishlarning mavjudligini qayd etish muhim ahamiyatga ega. Idishning yuqori yarmida bezak mavjud. Yana bir nuqta - idishning og‘zining shakli. Bu rasmda og‘iz borgan o‘xshaydi. Idish yog‘och tiqin kiritish orqali mustahkamlanadi²¹.

Muallif bu tasvir orqali simobko‘zachalar *suv bug‘lantirgich* sifatida qo‘llanganligini qayd etib o‘tadi.

Abu Bakr ibn Abdulloh ad-Davadariy (hijriy 736) o‘z asarida Basra (hozirgi Iroq hududi) da sodir bo‘lgan kuchli do‘l bo‘roni haqida ma’lumot keltiradi. Uning rivoyatiga ko‘ra, hijriy 613 yilda bu shiddatli tabiiy hodisa yuz bergan bo‘lib, do‘l donalarining hajmi nihoyatda katta bo‘lgan – ular “**ko‘za suvdek**” kelgani aytiladi. Bo‘ron shu qadar kuchli ediki, palma daraxtlarining shoxlarini sindirib, ko‘plab odamlar va hayvonlarning halok bo‘lishiga sabab bo‘lgan²².

She’riy asarlar:

O‘rta asrlarda ijod qilgan fors shoirlardan biri Afzaladdin Ibrohim ibn Ali Xogoniy Shirvani hisoblanadi²³. Xoqoniy Shirvani yoki Xoqoniy nomi bilan mashhur (forscha kaqany; taxminan 1126-yil Shemaxada tavallud topgan, 1199-yilda Tabrizda vafot etgan) XII asr shoiri. Shirvonshoh Manuchehr III Kesroniyning saroy shoiri, mo‘g‘ullargacha bo‘lgan so‘nggi yirik qasida shoiri Fors she’riyatining “Zaqa-fqaziya maktabi” vakili²⁴. Xogoniy Shirvani o‘z ijodida sferokonik idish yoki simobko‘zachalar mavzusiga to‘xtalib, mazkur idishning shakliy tuzilishiga urg‘u berib o‘tgan.

*Nafasim temirchi pechining havosidek issiq
Simob-ko‘zacha tomog‘idagi kabi mening
jonimga yaqin*²⁵.

Shu bilan birga Xogoniy Shirvani ijodida, bu turdagi idishlarning qanday saqlanganligi va ishlatilganligi haqida muhim ishoralar mavjud. Ularning ip yordamida osilgan holda saqlanishi mumkinligi ehtimoli e’tiborga molikdir. Bunday usul idishlarning barqarorligini ta’minlash bilan birga, ularning amaliy qo‘llanilishiga ham ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, bunday idishlar ba’zan inson histuyg‘ulari bilan ham bog‘langan holda talqin qilinadi. Kechqurun tushkunlikka “tushgan insonlarning ruhiy kechinmalari”, “yurakda tug‘ilgan sog‘inch” va “ip bilan osilgan idish” o‘rtasida o‘ziga xos poetik parallel o‘rnatilishi mumkin. Bu o‘xshatishlar idish shaklining yoki uning ishlatilish tamoyillarining chuqur ma’noga ega bo‘lishi ehtimolini ham ko‘rsatadi²⁶.

A.Go‘chani va Sh.Adil esa o‘z tadqiqotlarida simobko‘zachalarning vazifasini aniqlashda F. Attor

19 Абу Райхон Беруний. Китеб ал-Жамоҳир фи-Маърифат ал-Жавоҳир (Минерология). Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2017. – Б.199.

20 Arman H, Kouhestani H, Zariy A. Sphero-Conical Vessels in Islamic Pottery Survey and Explaining of Function. // فرود، یس‌ان‌شن‌اتساب تا‌اع‌اطم (Arxeologik tadqiqotlar, 12-jild, 2-son, 2020-y. - B. 54.

21 Ghouchani A and Adle.C Sphero-Conical Vessel as Fuqqa a, or a Gourd For “Beer”. Vol.9. 1992. - P. 72-92.

22 Arman H, Kouhestani H, Zariy A. Sphero-Conical Vessels in Islamic Pottery Survey and Explaining of Function. // فرود، یس‌ان‌شن‌اتساب تا‌اع‌اطم (Arxeologik tadqiqotlar, 12-jild, 2-son, 2020-y. - B. 54.

23 Джидди Г.А. Средневековый город Шемаха (IX - XVII вв.): историко-археологическое исследование. - Баку: Элм, 1981. - 175 с

24 Beelaert, Anna Livia. “KĀQĀNI ŠERVĀNI”. Encyclopædia Iranica. Retrieved.2019.

25 Нуретдинова А.Р. Сфероконические сосуды: проблема атрибуции // Ученые записки Казанского университета. Серия Гуманитарные науки. 2011. Том 153, кн. 3. С. 56

26 Xoqoniy Shervoniy. 1378.- B. 313



2-rasm. “Daqiqalar kitobi” Ko‘za suvli odam tasviri, Nosiriddin Muhammad ibn Ibrohim.
13-asr Parij Milliy kutubxonasi.(muallif. Arman H va boshq.)

(**Fariddin Attor**-taxallusi; asl ism sharifi Muhammad Abu Bakr ibn Ibrohim; taxminan 1148/51 yil tavallud topgan, Nishopurda 1219/21yilda vafot etgan) mutasavvif fors shoiri. Asarlarida tasavvufni targ‘ib qilgan, N.Ganjaviy (**Nizomiy Ganjaviy**-taxallusi; asl ism-sharifi Abumuhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zakiy Muayyad, tavalludi 1141 Ganja shahri, vafoti 1209 yil Ozarbayjon. Fors tilida ijod qilgan turkiy shoir va ma‘rifatparvar)²⁷, Samarqandiy va boshqa bir qator o‘rta asr shoirlarining baytlariga murojaat qilishgan. “**Dar bo‘yin bilan yashil rangdagi but**”, “**zulm jinlari qamaldi, uning bo‘yni pivo shishasiday bog‘lab qo‘yilgan**”, “**yuragim pivo shishasiday taranglashadi**”deb yozgan mualliflar²⁸. Bu tasvir ramziy va

falsafiy ma‘no kasb etishi mumkin. Misralardan shuni anglashimiz mumkinki, ularning fikricha idish va unda saqlangan ichimlik bir xil nomga ega bo‘lgan. Tadqiq qilinayotgan ushbu hunarmandchilik mahsuloti, o‘rta asrlarda *pivo uchun qovoq* sifatida foydalanilgan bo‘lishi mumkin.

Miniatyura asarlar:

Abu Muhammad Muhammad ibn al-Qosim al-Basriy al-Haririy (arab. ن ب يل ع ن ب م س ا ق ل ا د م ح م ; ي د ر ح ل ا ن ا م ث ع ن ب د م ح م ; 1054 yilda Basrada tug‘ilib, – 1122 yilda shu shaharda vafot etgan) arab adabiyotshunosi. Al-Hariri tomonidan yozilgan “Al-Maqamat”

²⁷ www.vikepedia.uz

²⁸ Ghouchani A and Adle.C Sphero-Conical Vessel as Fuqqa a, or a Gourd For “Beer”. Vol.9. 1992. - P. 72-92.

(تامادقمل) arab adabiyotining eng mashhur namunalari-
idan biri bo'lib, u o'sha davrning badiiy va til mahor-
atini aks ettiruvchi asar hisoblanadi. Asar 1237- yilda
yozilgan, 50 ta hikoyadan tashkil topgan. Asarning biz
uchun muhim bo'lgan jihati, uning hikoyalarida emas,
balki, asarda tasvirlangan bir **miniatyurada**.

O'rta asrlarda islom olamida ilm-fan va ta'lim
jarayoni muhim o'rin egallagan. Ta'lim maskanlari
bo'lib xizmat qilgan madrasalar, kutubxonalar va
dorushtashifolar nafaqat diniy ilmlarni, balki tabiiy fan-
lar, tibbiyot va falsafa kabi sohalarni ham rivojlantir-
gan. Ushbu tasvirda ham ilmiy yoki diniy anjuman
aks etgan bo'lishi ehtimoli yuqori.

Tasvirda turli sotsial guruhlarga mansub kishilar
gavdalanib, ular markazdagi shaxsga e'tibor qaratgan.
Markazdagi shaxs ehtirom bilan qarshilangan bo'lib,
u ustoz, tabib yoki olim bo'lishi mumkin. Uning yoni-
dagi javon yoki tokchada joylashgan buyumlar ilmiy
asarlari, tibbiy asboblari yoki boshqa fanlarga oid ma-
teriallari bo'lish ehtimoli yuqori. Bunday manzaralar,
ayniqsa, islom olamidagi ilmiy markazlar bo'lmish
Bag'dod, Damashq, Buxoro va Samarqand kabi sha-
harlarda keng tarqalgan. J.Mirzaahmedov ushbu min-
iatyurada tasvirlangan, idishlar shishadan tayyorlan-
ganligini qayd etib o'tgan²⁹.

Tokchada joylashgan buyumlar orasida, sfero-
konik shaklga ega, tor, ammo uzun tomoqli, yon-
boshga yotqizib qo'yilgan 3 dona idishni ko'rishimiz
mumkin. Bu tasvir bizga, simobko'zachalardan o'rta
asrlarda **dori-darmon vositalarini saqlashda** foydala-
nilgan, degan xulosaga kelishimizga, sabab bo'lmoqda.
Tokchada joylashgan buyumlar orasida, sferokon-
ik shaklga ega, tor, ammo uzun tomoqli, yonboshga
yotqizib qo'yilgan 3 dona idishni ko'rishimiz mum-
kin.

Bu tasvir bizga, simobko'zachalardan o'rta asrlar-
da **dori-darmon vositalarini saqlashda** foydalanilgan,
degan xulosaga kelishimizga, sabab bo'lmoqda.

Farmakologik kontekstdagi sharsimon konus-
li idishning ikkinchi tasviri - bu Abu ali Ibn Sinoning
1632 yildagi "Tib qonunlari" kodeksi bo'lib, uning lak
bilan qoplangan muqovasida to'rtta sferokonussimon
idishlar tasvirlangan. Rasmda "bir bog'da, bemor ayol
bilan gaplashayotgan shifokor, va uning xizmatkorlari

bemor uchun dori-darmon va iliksirlar tayyorlayotgan
manzara" aks etgan³⁰. Shifokor (qizil rangda kiyingan),
uning ayol bemori (oq kiyimda) va uning erkak "eskori-
ti" - kuzatib boruvchisi (yashil rangli kiyimda) suhbatda
o'tirishibdi. Tasvirning oldingi qismida ikkita xizmat-
kor, bemor uchun dori tayyorlamoqda (4-rasm).

Tasavvurning kompozitsion markazida - dori
tayyorlayotgan xizmatchilar va dori beradigan tabib
o'rtasida - to'rtta sharsimon idishlar laganda turib-
di. Lagan tuzilishi g'alati bo'lib, har bir sferokonik
idishning o'tkir tubi joylashadigan chuqurchalar mav-
jud³¹ (5-rasm).

Muallifning fikricha, ushbu manzara sharsimon
idishlar haqiqatan ham **dorixona idishlari** bo'lganligini
tasdiqlaydi.

2. Moddiy manbalar

2.2. San'at asarlari - Haykaltaroshlik namu- nalari:

O'rta asrlarda, sferokonik idishlar tasvirlangan,
bugungi kunda dunyoga mashhur bo'lgan haykalta-
roshlik namunalari yaratilgan. M.V.Fontana³², H.Ar-
man³³, C.Lesoon³⁴ kabi tadqiqotchilar asarlarida ush-
bu haykaltaroshlik namunalari haqida ma'lumotga ega
bo'lamiz.

Londondagi Viktoriya va Albert muzeyida bosh
farishtalar Gabriel va Maykl tasvirlangan ikkita mar-
mar haykal saqlanib qolgan³⁵. Ular XIII asrning ikkinchi
yarmida Nikola Pisano maktabi tomonidan yasalgan³⁶.
Ular tik turgan, qanotlari yoyilgan (Avliyo Gabrielning
o'ng qanoti deyarli yo'qolgan) va ikkalasi ham osilgan
strukturaning tayanchlaridir. M.V.Fontana haykallarning
tuzilishini quyidagicha tasvirlaydi. Muqaddas Gabriel
manjetlar va yoqalarda kashta tikilgan kiyim va oldidan
o'ralgan kashtasiz mantiya, uning o'ng qo'lida sfero-
konusli idishni ushlab turibdi (**6-rasm**). Avliyo Maykl
ko'rinishidan bezaksiz kiyim uning ustiga ikkita kashta
tikilgan mantiya, chap qo'lida esa, sferokonusli idish³⁷
(**7-rasm**). Tadqiqotchining fikricha, mazkur haykallarda
ishlangan sharsimon idishlar **parfyumeriya idishi** sifa-
tida foydalanilgan, ammo asoslovchi dalillar ko'rsatil-
magan.

Simobko'zachalar bo'yicha so'nggi yirik tad-
qiqotlardan biri C.Lesoonga tegishli. U o'z tadqiqotida,

29 Мирзаахмедов Д. Узбекистан. Художественная культура Центральной Азии и Азербайджана IX–XV веков. Том II Стекло. МИЦАИ, 2011. – С. 99. Рис. 4.

30 Lesoon C. The sphero-conical as apothecary vessels: an argument for dedicated use. // Muqarnas. volume 39. Brill. Leiden| Boston 2022. – P.324. Fig.10.

31 Lesoon C. The sphero-conical as apothecary vessels: an argument for dedicated use. // Muqarnas. volume 39. Brill. Leiden| Boston 2022. – P.325. Fig.11.

32 Fontana M.V. An Islamic Sphero-Conical Object in a Tuscan Medieval Marble / Islam and the West. Arabic Inscriptions and Pseudo Inscriptions. Strumenti 35. 2020, Universitas Studiorum - Publishing House via Sottoriva, 9 - 46100 Mantova (MN) - Italy. 2020. – P.113-153.

33 Arman H, Kouhestani H, Zariy A. Sphero-Conical Vessels in Islamic Pottery Survey and Explaining of Function. // فرود، یس انشانتساب تاغلطم / Arxeologik tadqiqotlar, 12-jild, 2-son, 2020-y. - P. 56.

34 Lesoon C. The sphero-conical as apothecary vessels: an argument for dedicated use. // Muqarnas. volume 39. Brill. Leiden| Boston 2022. – P.326.

35 Fontana M.V. An Islamic Sphero-Conical Object in a Tuscan Medieval Marble / Islam and the West. Arabic Inscriptions and Pseudo Inscriptions. Strumenti 35. 2020, Universitas Studiorum - Publishing House via Sottoriva, 9 - 46100 Mantova (MN) - Italy. 2020. – P.113.

36 Arman H, Kouhestani H, Zariy A. Sphero-Conical Vessels in Islamic Pottery Survey and Explaining of Function. // فرود، یس انشانتساب تاغلطم / Arxeologik tadqiqotlar, 12-jild, 2-son, 2020-y. - P. 57.

37 Fontana M.V. An Islamic Sphero-Conical Object in a Tuscan Medieval Marble / Islam and the West. Arabic Inscriptions and Pseudo Inscriptions.



3-rasm.

Bag'dod qo'lyozmasidan miniatyura. Al-Haririyning "Al-Maqomat" (1237) asari.
(Muallif. Mirzaahmedov J).

yuqoridagi san'at asarlariga to'xtalib, farishtalar tutib turgan sferokonuslar *tibbiy maqsadlar* (dori-darmon saqlash) uchun xizmat qilganligini ta'kidlaydi. Fikriga dalil sifatida o'n uchinchi asrdagi Italiya kontekstini diqqat bilan ko'rib chiqish kerakligini ko'rsatadi.

"Antik davrning oxirlariga kelib, bosh farishtalarning maqomi o'zgaradi, ular iltijo qiluvchi nomidan, shafolat qilishga qodir avliyolar sifatida hurmatga sazovor bo'lishdi. Avliyo Maykl uchun bu o'zgarish V asrning

boshlarida sodir bo'lgan va tabib sifatida, O'rta er dengizining sharqiy qismida rivojlangan va ko'p o'tmay, Evropaga tarqalgan"³⁸.


C.Lesoon "Tobit kitobi"³⁹ga asoslanib, sferokonik idish ushlab turgan ikkinchi bosh farishta haykali haqida ma'lumot bergan. Dastlab bosh farishta Rafael (milodiy 1260-70 yillar) deb atalgan, ammo keyinchalik bosh farishta Jabroil deb nomlangan.

Tobit kitobidagi rivoyatga ko'ra, Rafael Tobit

Strumenti 35. 2020, Universitas Studiorum - Publishing House via Sottoriva, 9 - 46100 Mantova (MN) - Italy. 2020. - P.113.

38 Fontana M.V. An Islamic Sphero-Conical Object in a Tuscan Medieval Marble / Islam and the West. Arabic Inscriptions and Pseudo Inscriptions. Strumenti 35. 2020, Universitas Studiorum - Publishing House via Sottoriva, 9 - 46100 Mantova (MN) - Italy. 2020. - P.125.

39 Izoh: Tobit kitobi, ba'zan Tobias kitobi deb ataladi, katolik Injilining 46 kitobining bir qismidir. Diniy roman sifatida yozilgan bu hikoya



4-rasm.
Abu ali Ibn Sino. "Tib qonunlari". S
hifokor va bemor ayol.

5-rasm.
To'rtta sferokonik idishlar tasviri.
1632-yil. (muallif. C.Lesoon)



6-rasm.
Bosh farishta Gabriel. Haykal taxminan. 1260 - 1270 yasalgan. (Muallif: © Viktoriya va Albert muzeyi, London)

asning ko'zi o'z otasini davolash uchun javobgardir. Rafael yosh Tobiasga baliqni tutib, uning yuragi va jigarini maydalab xamirga aralashtirishni aytadi. Bosh farishtaning ko'rsatmalariga rioya qilib, Tobias xamirni olib, otasining ko'ziga surtadi. Mo'jizaviy ravishda otasi



7-rasm.
Bosh farishta Maykl. Haykal taxminan. 1250-1275 yasalgan. (Muallif: © Viktoriya va Albert muzeyi, London)

tuzalib ketadi. Bu hikoya O'rta asrlarning oxirlarida va zamonaviy Evropada rasm va vitraylarda keng tarqalgan. Shularga asoslangan holda, muallif, Avliyo Maykl va Avliyo Rafael marmar haykallari shifobaxsh bosh farishtalar sifatida yaratilgan. Va ular kasalxona qurilishin-

ossuriyaliklar o'z xalqiga hujum qilib, Isroil shohligidan deportatsiya qilganidan keyin quvg'inda yashayotgan sodiq isroillik Tobit haqida hikoya qiladi.

